

TIJORAT BANKLARI VA KRIPTOVALYUTALAR: RAQAMLI MOLİYAVIY EKOTIZMNI RIVOJLANTIRISHDAGI HAMKORLIK

Ibroximov Ilxomjon Shavkatjon o'g'li

i.f.f.d.

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti.

Sulaymonov Baxrom Ulug'bekovich

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14307074>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Tijorat banklari va kriptovalyutalarining birlashishi raqamli iqtisodni va moliyaviy ekotizimni rivojlantirishdagi o'rni, foydali va zararli tomonlari ko'rib chiqilgan. Mamlakatimizda bu birlashish mamlakat iqtisodiyoti, bank sohasini yanada rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishda qanday yo'llarni ochishi o'rganilgan. Bu birlashishda Markaziy bank o'rni qanday, mamlakatni siyosiy va iqtisodiy yo'llarida qanday o'zgarish bo'lishlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, kriptovalyutalar, blokchain, bitcoin, markaziy bank, kripto aktiv, kripto birja, elektron xamyon, maxfiy pullar.

COMMERCIAL BANKS AND CRYPTOCURRENCIES: COOPERATION IN THE DEVELOPMENT OF A DIGITAL FINANCIAL ECOSYSTEM

Abstract. This article discusses the role of the merger between commercial banks and cryptocurrencies in developing the digital economy and financial ecosystem, as well as its advantages and disadvantages. It explores how this merger can open new paths for the country's economy, further development of the banking sector, and poverty reduction. The role of the Central Bank in this process and the potential changes in the country's political and economic directions are also discussed.

Keywords: commercial banks, cryptocurrencies, blockchain, bitcoin, central bank, crypto assets, crypto exchange, e-wallet, confidential money.

COMMERCIAL BANKS AND CRYPTOCURRENCIES: COOPERATION IN THE DEVELOPMENT OF A DIGITAL FINANCIAL ECOSYSTEM

Аннотация. В этой статье рассматривается роль слияния коммерческих банков и криптовалют в развитии цифровой экономики и финансовой экосистемы, а также его положительные и отрицательные стороны. Изучены пути, как это слияние может открыть новые возможности для экономики страны, развития банковского сектора и сокращения бедности. Обсуждается роль Центрального банка в этом процессе и изменения, которые могут произойти в политических и экономических курсах страны.

Ключевые слова: коммерческие банки, криптовалюты, блокчейн, биткойн, центральный банк, криптоактивы, криптобиржа, электронный кошелек, конфиденциальные деньги.

Kirish

Bugungi kunda XXI-asr axborot texnologiyalar davri hisoblanadi. Texnologiyalar rivojlanish davri o'tgan asr oxiri ya'ni XX-asrga taqaladi. Axborot texnologiyalari ko'plab sohalarda qulaylik va tezkorlikni yaratib berdi.

Biznes tashkilotlari, banklar, davlat tashkilotlari va boshqa turli sohadagi tashkilotlar o'z ishlarining ko'p qismini axborot texnologiyalariga moslashtirishgan ya'ni raqamlashtirishga o'tkazgan bu ularga juda qulaylik yaratgan. Hozirgi kunda turli xil innovatsiyalar, texnika-texnologiyalar, robototexnika va suniy intellekt kabi texnologiyalar jadal rivojlanmoqda.

Bunga asosiy sabab 2008-yilgi butun jahon moliyaviy inqirozi sabab bo'lgan, bu inqirozning sababi AQSH (Amerika Qo'shma Shtatlari)dagi banklaridagi ipoteka krediti asos bo'ladi. Har bir asr, yil va oyda bo'ladigan har qanday inqiroz yangi imkoniyatlar kalitini va qulayliklarni yaratib beradi. 2008-yilda bo'lib o'tgan butun jahon moliyaviy inqirozidan keyin, ya'ni 2009-yilda blokchain, Bigdata, IoT (Internet of things), bulutli texnologiya kabi axborot texnologiyalari rivojlanishni boshladi. O'sha vaqtda birinchi kriptovalyuta "bitcoin" ham yaratilgan, bu kriptovalyuta blokchain dasturi orqali ishlay boshlagan va token qazib olish orqali mavjud qilingan.

Kriptovalyutalar ommabopligining tez o'sishi davrida ularning huquqiy maqomi masalasi dolzarb bo'lib bormoqda. Bitcoin va boshqa raqamli aktivlar investorlar va foydalanuvchilarni o'ziga jalb qiladi va nafaqat investitsiyalar, balki to'lovlarni amalga oshirish uchun ham yangi ufqlarni ochadi.

Bitkoindan qonuniy to'lov vositasi sifatida foydalanishga ruxsat bergan mamlakatlar (Salvador va CAR). Ushbu mamlakatlarning rasmiylari Bitcoinni erkin muomalaga ega qonuniy to'lov vositasi sifatida tan oldi. Ammo kriptovalyutalarni muomala vositasi sifatida qabul qilmagan davlatlar ham bo'lgan, Dunyo bo'ylab kriptovalyutalar mashhurligining jadal o'sishiga qaramay, ayrim davlatlar (Xitoy, Jazoir, Marokash Misr va boshqalar) ulardan foydalanish va o'z hududida savdo qilishni qat'iy man qildi.

Kriptovalyutalardan foydalanishni taqiqlash sabablari har xil:

➤ Birinchi sabab, hukumatlar kriptovalyutalarning pul-kredit siyosatiga va moliya tizimining barqarorligiga potentsial ta'siridan xavotirda. Kriptovalyutalarning markazlashtirilmaganligi markaziy banklarning pul oqimlarini nazorat qilish imkoniyatlarini cheklashi mumkin.

➤ Ikkinchi sabab, ayrim kriptovalyuta operatsiyalarining anonimligi pul yuvish, terrorizmni moliyalashtirish va boshqa jinoiy harakatlar uchun sharoit yaratishi mumkin.[1]

Shu sababli hukumatlar pul tizimi va moliya bozorlarini tartibga solish mexanizmlari ustidan nazoratni yo'qotmoqchi emas. Dunyo mamlakatlarida ushbu turdagi valyutalarni nazorat qilish turli xil nazorat organlariga yuklatilgan masalan Amerika Qo'shma Shtatlarida Xavfsizlik va ayirboshlash komissiyasi, Germaniyada Federal moliyaviy nazorat organi va Eronda Kriptovalyutaning har qanday ko'rinishiga taqiq qo'yilgan. [2]

Mamlakatimizda kriptovalyutalardan foydalanish haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, (03.07.2018 yildagi PQ-3832-son)

- kripto-aktivlar bo'yicha faoliyat va ma'lumotlarning taqsimlangan reyestri texnologiyalari sohasida xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikni har tomonlama rivojlantirish, raqamli iqtisodiyotda loyihalarni birgalikda amalga oshirish uchun ma'lumotlarning taqsimlangan reyestri texnologiyalarini ishlab chiqish sohasida faoliyat ko'rsatadigan yuqori malakali xorijlik mutaxassislarini jalb qilish;

- kripto-aktivlar aylanmasi maxsus normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.[3]

Davlatimiz rahbari kripto-aktiv bo'yicha faoliyatni rivojlantirish xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlik qilishni ilgari surmoqdalar. Buning natijasida kripto birjalar tashkil qilinishi va kriptovalyutalarni qonuniy oldi-sotdisi yo'lga qo'yiladi degan ma'noni bildiradi va hozirda bir qancha kripto birjalar ham mamlakatimizda faoliyat yuritadi. (Bitget, WhiteBIT, CoinEx, Bitfinex va boshqalar). Ushbu birjalar tijorat banklari bilan hamkorlikda faoliyat yuritishlari jamiyatga, aholiga, davlat iqtisodiyotiga juda yaxshi foydali bo'ladi.

Tadqiqot

Mamlakatimizda tijorat banklari iqtisodiyotning katta qismini tashkil qiladi. Tijorat banklari bankrotligi davlat iqtisodiyotini tanazzulga uchratishi hech gap emas. Shu sababli banklarga katta ahamiyat beriladi va undagi bajariladigan operatsiyalar nazorati kuchli. Lekin shunga qaramay banklarda muammolar uchrab turadi. Bu muammolarda biri kredit qaytmasligidir, chunki aholining ko'p qismi ehtiyojga yetarli maosh olmasligi, tovar va xizmatlarni sezilarli darajada narxi yuqoriligidadir.

Hozirgi kunda turli kriptovalyutalar (token)lar mavjud va yildan yilga yangi kriptovalyutalar yaratilmoqda va bu xalqaro kriptobirjalarda sotuvga chiqarilmoqda. Bu tokenlarni mayning qilish ya'ni "qazib olish"ning turli xil yo'llari mavjud bazi tokenlar o'yin ko'rinishida bazilari ilova orqali amalga oshiriladi va bu oddiy aholi uchun ham unchalik qiyinchilik tug'dirmaydi. Tijorat banklari va kripto birjalar hamkorlikda ish yuritishlari ikki tomon manfaatlari uchun juda yaxshi va daromadli bo'ladi.

Ishlash tartibi quyidagicha ko'rinishda bo'lishi mumkin:

- aholi ilova yoki o'yinlar orqali tokenlarni qazib olishadi kripto birjalar belgilangan narx bo'yicha aholidan qabul qilib olishi yoki bank aholidan qabul qilib olishi ham mumkin. Bank qabul qilgan tokenlarni o'zi hamkor bo'lgan kripto birjaga sotishi orqali daromadini oladi.

- bu jarayonda kripto birja ham bank ham oz foydasini olishi mumkin va aholi ham bank oldidagi majburiyatidan halos bo'ladi. Jarayonni amalga oshirish uchun hukumatning siyosiy yondashuvi, Markaziy bank nazorati hamda kripto birjalarni ishonchliligi muhim ro'l o'ynaydi.

Kripto birjalar – bu kriptovalyutalar (token)larni oldi-sotdi qiluvchi markaz hisoblanadi.

Kriptovalyutalar bo'yicha real operatsiyalarini mustaqil ravishda amalga oshirish mumkin bo'lgan bir qancha birjalar va ularning amashinuvi punktlari bilan tanishib, kriptovalyutalar bozorida ishlashni boshlash uchun zarur bo'lgan eng muxim masalani ularni qanday qilib sotib olish mumkinligini ko'rib chiqamiz:

Mitsubishi UFJ Financial Group banki xam o'z kriptovalyuta birjasini xamda milliy valyutaga bog'liq bo'lgan tokenlarni ishga tushurishni rejalashtirmoqda. Aloxida bitcoin akkauntlarni boshqaruvchi servis tashkil qilish xam ko'zda tutilyapti. Moliyaviy xizmatlar bo'yicha agentlik FSA bu ishni ko'rib chiqmoqda. Bu kriptovalyutaning nomi bank abbreviaturasidan kelib chiqqan xolda MUFG Coin deb nomlanar ekan ishonchlilikni ta'minlash uchun bu kriptovalyuta yapon tangasi bilan 1:1 nisbatda bo'ladi va keyinchalik kurs o'zgarishi mumkin. Bunday qilishdan maqsad – narxlar tez-tez o'zgarishining oldini olish va foydalanuvchilarning ishonchini qozonishdir. Shu servis tufayli savdolarni tashqi birjalarsiz amalga oshirish mumkin bo'ladi va natijada barcha valyuta bank ixtiyorida bo'ladi.[4]

Bu loyiha juda yaxshi o'ylangan, ushbu loyihani mamlakatimizda Markaziy bank tomonidan amalga oshirilishi ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki pul oqimi nazoratini yoqo'tmaydi va hech qanday ishonchsizlik, gumon va shubhalar mavjud bo'lmaydi.

Kriptovalyutalar bu jismoniy mavjudligi bo'lmagan elektron pullar hisoblanadi. Bu kriptovalyutalar blokchain axborot texnologiyasi orqali ishlaydi. Blokchain – taqsimlangan reestr bo'lib u yerda bir-birlari bilan bog'langan bloklar shakllangan. Xar bir blokda ma'lumotlar saqlanadi ya'ni pul o'tkazgan xamyon manzili, tuzilgan shartnoma, pul miqdori va oluvchining manzili, u haqidagi ma'lumotlar saqlanadi. Ma'lumotlar esa bir-biriga bog'liq bo'lmagan minglab tugunlardan saqlanadi. Blokchain – pulli va intellektual mulkni o'z ichiga olgan raqamli tovarlarni tezkor, ishonchli va shaffof ravishda uzatishga imkon beruvchi texnologiyadir. Bu – biron-bir shaxsga, davlatga tegishli bo'lmagan kompyuterlar klasteri tomonidan boshqariladigan o'zgarmas yozuvlar to'plamidir. Ushbu ma'lumotlar bloklarning xar bir kriptografik prinsiplaridan (ya'ni zanjirlardan) foydalangan xolda ximoyalangan va bir-biri bilan bog'langan. Blokchain tarmog'i markaziy xokimiyatga ega emas (ya'ni markazlashmagan) bu demokrat tizim mevasi. Blokchain umumiy va o'zgarmas jurnal bo'lganligi sababli, undagi ma'lumotlar xamma uchun va xamma ko'rib turadi.

Demak, blokchainda ko'rilgan xar bir narsa ochiqdir va ishtirok etgan xar bir kishi o'z qilmishlari uchun javobgardir. Minglab kompyuterlar tarmog'ida saqlanadigan (joylashtirilgan) ma'lumotlar yangilanib turiladi, undagi yozuvlar ommaviydir va oson tekshirilib turadi.

Xakerlarning buzishi uchun ushbu ma'lumotlarning markazlashtirilgan versiyasi yo'q va bu ma'lumotlardan internet orqali hamma foydalanishi mumkin. Blokchain uchta xususiyatga ega – u markazlashmagan, oshkor va o'zgarmas. Blokchain birinchi marotaba Bitcoin kriptovalyutasida nomoyon bo'lgan.

Bitcoin bu – 2009-yillarda Satoshi Nakamoto deb nomlangan shaxs yoki shaxslar guruhi tomonidan murakkab kriptografik matematik xosib-kitoblar natijasida ishlaydigan yangi elektron to'lov tizimini ommaga taqdim etgan va bu bitcoin deb nomlangan. Bitcoin kriptografik elektron pul birliklari maxsus elektron xamyon (bu foydalanuvchining pul mablag'larini elektron shaklda saqlash va ulardan turli to'lovlar uchun foydalanishga mo'ljallangan raqamli platforma yoki ilova) larda saqlanib, bunday xamyonlarga pul tushurish va ularni turli xil maqsadlarda ishlatish mumkin.[4]

Biz kriptovalyuta tarmog'iga ulanganimizda, barcha bitcoinlar oldi-sotdisini aniq va ravshan ko'rishimiz va kuzatishimiz mumkin bo'ladi. Barcha bitcoin xamyonlar anonimdir (ya'ni xamyonning egasi kim ekanligi aytilmaydi), shuning uchun ham biron bir tanishimiz qaysi xamyon uniki ekanini aytmagan bo'lsa, biz bu haqda hech qachon bila olmaymiz.

Yil	YOY	Maqsadli narx	Jami ROI
2024	91.40%	2.47	+95.06%
2025	-32.20%	1.67	+32.25%
2026	28.80%	2.15	+70.34%
2027	36.40%	2.94	+132.35%
2028	54.80%	4.55	+259.67%
2029	-13.80%	3.92	+210.04%
2030	10.80%	4.34	+243.52%

2031	22.60%	5.32	+321.16%
2032	21.60%	6.47	+412.12%

1- jadval. Bitcoinning kelajakdagi tahminiy narxlar (mlrd. so'm).¹

Bitcoin keyingi 10 yillikda sezilarli darajada narxi ko'tarilishi kutilmoqda. 16 yil avval yaratilgan bitcoin bugungi kunda yuqori narxlar bilan, kelgusi yillarda yanada yuqori narxlar bilan baholanmoqda. Demak, bitcoin 16 yilda narxi yuqori darajaga chiqqan, biz yaratishimiz kerak bo'lgan token ham 15-20 yilda ko'tariladimi degan savol tug'ilishi mumkin. Bunga ba'zi omillar to'sqinlik qilishi mumkin, lekin hozirgi kunda tokenni tanitish oson va bu bilan ko'proq auditoriya yig'ish mumkin. Bitcoin uzoq vaqt oralig'ida ko'tarilganliging sababi bitcoin birinchi yaratilgan tokenlardandir. Bitcoinni mayning (qazib olish) qilish kompyuter orqali amalga oshirilardi. O'sha vaqtda bitcoin yaratilganligi dunyo aholisi uchun yangilik bo'lgan va ko'pchilikda bitcoinga ishonch bo'lmagan va ko'pchilikda kompyuter mavjud bo'lmagan. Hozirgi kunda rivojlanib borayotgan kriptovalyutalarni ommaga taqdim etish qulay. Bitcoinning bu ko'rsatkichlari unda keying chiqqan tokenlarga (Ethereum, Tether USDt, BNB, Notcoin, HMSTR) ishonchni orttirib bormoqda. Bu tokenlarni bitcoin kabi narxi oshishi uchun katta miqdorda investitsiya kiritilishi kerak shu tariqa narxlar ko'tarilishi mumkin. Mamlakatimizda, Markaziy bank tomonidan yaratilishi mumkin bo'lgan token (Uzcoin nomi bilan bo'lishi mumkin)ga investor yoki davlat tomonidan katta investitsiya kiritilsa, yuqori narxlarga chiqishi mumkin.



1-rasm. Bitcoinning 1 yillik prognozi.²

1-rasmda ko'rinib turganidek 2024-yil 5-noyabrdan keyin bitcoin keskin ko'tarilib ketgan.

Bunga asosiy sabab siyosiy yondashuvdir, ya'ni AQSH (Amerika qo'shma shtatlari) prezidentlik saylovlarida ustunlik qilgan Donald Trupmning siyosiy yondashuvi hisoblanadi. Donald Trump 2019-yil prezidentlik davrida kriptovalyutalarga tanqidiy yondashgan. U Twitter'da shunday degan edi: "Men Bitcoin va boshqa kriptovalyutalar tarafdori emasman. Ular pul emas, ularning qiymati juda o'zgaruvchan va asossiz."

Donald Trump ushbu texnologiyalarning noqonuniy faoliyatlar, xususan, giyohvand moddalar savdosi va boshqa jinoyatlarni qo'llab-quvvatlash ehtimoli haqida xavotir bildirgan. 2024-yilga kelib, Trumpning kriptovalyutalarga nisbatan pozitsiyasi tubdan o'zgardi. U saylovoldi AQShni "kriptovalyutalar poytaxti"ga aylantirishga va'da berdi va milliy darajada strategik bitcoin zaxirasini tashkil qilish taklifini ilgari surdi.

¹ www.bitget.com/uz/price/bitcoin/price-prediction

² <https://montague.law/blog/donald-trump-crypto-2024/>

Bu o'zgarishning yorqin namoyishi uning Nashvillda bo'lib o'tgan bitcoin 2024 konferensiyasidagi nutqi edi. Trump ushbu tadbirda kriptovalyutalarni AQSh iqtisodiyotiga integratsiya qilish bo'yicha o'z qarashlarini taqdim etdi. Bu siyosiy yondashuv mamlakat iqtisodiyotini yanada rivojlantirish va yetakchi mamlakat o'rtasida yanada kuchli bo'lishga qaratilgan yondashuv hisoblanadi.

Donald Trump kriptovalyutalar sohasini qo'llab- quvvatlash uchun yangi farmonlar chiqarishni rejalashtirmoqda. Bu farmonlarning asosiy maqsadi:

bank xizmatlariga kirishni yengillashtirish kripto kompaniyalari uchun bank tizimiga osonroq kirishni ta'minlash nazarda tutilgan. Bu qadam sanoatning moliyaviy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish va texnologik rivojlanishni tezlashtirish uchun muhim hisoblanadi;

regulyativ to'siqlarni qisqartirish regulyatsiya jarayonlarini soddalashtirish orqali bizneslar uchun yanada qulayroq muhit yaratiladi. Ayniqsa, muvofiqlik talablari bo'yicha aniqlik kiritish va texnologik innovatsiyalarni rag'batlantirishga e'tibor qaratiladi. Bu esa kompaniyalarga o'z faoliyatini qonuniy asosda va samarali olib borishga yordam beradi;

raqamli aktivlarni moliyaviy tizimga integratsiya qilish davlat raqamli aktivlarni milliy moliyaviy tizimning muhim qismiga aylantirishni maqsad qilmoqda. Bu esa nafaqat texnologik rivojlanishga, balki yangi ish o'rinlari yaratishga va iqtisodiy o'sishga xizmat qilishi kutilmoqda.[6]

Bank xizmatlariga kirishni yengillashtirish haqidagi rejalashtirilgan farmoniga e'tibor qaratsak, bu farmon amalga oshirilganda nimalar yuz berishini ko'rib chiqamiz. Bunda:

- banklar va kripto birjalar hamkorlikda ishlashni boshlaydi, aholi bank xizmatlaridan foydalanishda (kredit so'ndirish, omonat qo'yish) kripto valyutalardan foydalanishi mumkin.

- tokenlar oldi-sotdisini nafaqat kripto birjalarda balki banklarda ham amalga oshirilishi mumkin.

- banklarda kriptovalyutalardan foydalanish boshlanganda, chet el mamlakatlar bilan ham oldi-sotdi jarayonini amalga oshirishda kriptovalyulalardan foydalaniladi va bu o'z-o'zidan boshqa mamlakatlar ham o'z banklarida kripto valyutalardan foydalanishga ruxsat berishi mumkin.

Bu hodisalar amalga oshishi jahon iqtisodiyotini yanada rivojlantirish va shu o'rinda mamlakat iqtisodiyotini kuchli mustahkam qilishi mumkin. Bu sohani amalga oshirishda mamlakatimiz AQSH (Amerika qo'shma shtatlari) bilan hamkorlik orqali amalga oshirishi yurtimizga juda katta foyda va o'zgarishlar olib kelishi mumkin.

Xulosa va takliflar

Kriptovalyutalarni nazorat qilish murakkab va bu tog'risida hukumatning siyosiy yondashuvi ham muhim ro'l o'ynaydi. Kriptovalyutalar ishochliligi blokchain dasturiga bo'lganligidadir shu sababli xakerlar hujumiga uchrash xavfi yo'q ya'ni mayning qilingan tokenlarni yo'qolib qolish ehtimoli mavjud emas. Lekin bir nechta xavfli turlari mavjud bo'lib bular bozordagi talab va taklif orqali narxlar o'zgarishi yoki token almashinuv operatsiyasi noqununiy shaklda amalga oshirilishida ya'ni jinoiy faoliyat, noqonuniy pullarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish xavflari mavjuddir.

Yaponiya kompaniyasi Mitsubishi strategiyasi orqali muammoni hal qilish yaxshi yechim sanaladi. Yaponiya 2017-yilda bitcoinni qonuniy to'lov vositasi sifatida tan olgan birinchi mamlakatlardan biri bo'ldi. Yaponiyada kripto birjalariga qat'iy qonunlar mavjud.

Tijorat banklari va kripto birjalar hamkorlik qilishi har tomonlama qulaylik olib keladi.

Ushbu strategiyani amalga oshirish uchun hukumat tomonidan kriptovalyuta oldi-sotdisi uchun qonunlar ishlab chiqishi, Markaziy bank nazoratni o'z qo'liga olgan holda boshqaruv va yaxshi uzoq muddatli strategiya olib borishi lozim boladi va ko'plab kripto birjalar ochish, chet el investorlarini jalb qilish mamlakat iqtisodiyotining o'sishiga va tijorat banklarining yanada rivojlanishiga jahon reytinglarida yuqori o'rin olishiga sabab bo'ladi.

Markaziy bank tomonidan yaratilishi mumkin bo'lgan token ham dunyo miqyosida yoki mamlakat ichida bo'lishidan qat'iy nazar, investitsiya kiritilsa, qonun-qoidalar ishlansa yuqori natijalarga erisha olishi mumkin.

AQSH (Amerika qo'shma shtatlari) prezident Donald Trumpning bu yondashuvini, mamlakatimiz rahbari SH.M.Mirziyoyev ham o'z iqtisodiyotimiz, siyosatimiz va banklar holatiga mos ravishda qonun-qoidalar joriy qilishlari yurtimiz iqtisodiyotini yanada kuchli, mustahkam qilish mumkin.

Yana bir yo'llaridan biri mamlakatimiz va AQSH (Amerika qo'shma shtatlari) davlati bilan bu soha bo'yicha hamkorlikda ishlashlari kelgusi yillarda mustahkam do'stlik va birlikni keltirib chiqaradi.

REFERENCES

1. <https://cryptomus.com/uz/blog/list-of-countries-where-cryptocurrencies-arelegalorprohibited?srsId=AfmBOorYXomjEe7xzxNCOGMpR6XYpNdjk01VKyxwTHEZm0P55iFpq1MC>
2. <https://talimxabarlari.uz/11318/>
3. <https://lex.uz/ru/docs/-3806053>
4. M. Bo'taboyev; F. Mulaydinov; G'. Zaxidov; X. Sattarova. Raqamli iqtisodiyot. "innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi" Toshkent – 2021
5. (359-360; 454-455; 490-betlar)
6. <https://www.bitget.com/uz/price/bitcoin/price-prediction>
7. <https://montague.law/blog/donald-trump-crypto-2024/>